

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 3
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**3-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 3
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.



“HADIS MEROSINING TA’LIM-TARBIYAVIY SALOHİYATI: TARIXIY-PEDAGOGIK TAHLIL VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: Fayzullayevagulnoza10@gmail.com

Аннотация.

Mazkur maqolada hadislarining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati tarixiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Islom ta’lim tizimining shakllanishida Qur’oni karim va sunnatning o’rni, Payg’ambar Muhammad (s.a.v.) davridagi dastlabki ta’lim shakllari, hadis ilmining rivojlanish bosqichlari hamda Movarounnahrda shakllangan muhaddislik maktablarining ta’lim va tarbiyaga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy va boshqa allomalar merosining yosh avlod ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi o’rni tahlil qilinadi. Maqolada an’anaviy maktab va madrasalar faoliyati, jadidchilik davridagi ta’lim islohotlari, sho’ro davrida diniy ta’limning cheklanishi hamda mustaqillikdan keyingi davrda hadis ilmining qayta tiklanishi izchil ko’rib chiqiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida hadislarining axloqiy mazmunidan foydalanish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg’unlashtirish hamda “Tarbiya” fani mazmuniga integratsiya qilish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so’zlar: hadis, sunnat, Qur’oni karim, islom ta’limi, hadis ilmi, Movarounnahr, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Al-Adab al-Mufrad, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, madrasa, jadidchilik, “Tarbiya” fani, zamonaviy ta’lim.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ НАСЛЕДИЯ ХАДИСОВ: ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

Файзуллаева Гулноза Камоловна

Национальный институт педагогики воспитания имени Кары-Ниязи, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье представлен историко-педагогический анализ образовательного и воспитательного потенциала хадисов. Раскрывается значение Корана и Сунны в становлении исламской системы образования, рассматриваются ранние формы обучения в период жизни Пророка Мухаммада (с.а.в.), основные этапы формирования хадисоведения и развитие школ хадисоведения в Мавераннахре. Особое внимание уделяется педагогическому наследию Имама аль-Бухари, Имама ат-Тирмизи и других выдающихся ученых, а также его значению в духовно-нравственном воспитании молодого поколения. Последовательно анализируются особенности традиционного школьно-медресинского образования, просветительские реформы джадидов, положение религиозного образования в советский период и процессы возрождения хадисоведения в независимом Узбекистане. Обоснована педагогическая значимость нравственного содержания хадисов в условиях современного образования, а также возможности его сочетания с национальными и общечеловеческими ценностями и интеграции в содержание учебного предмета «Воспитание».

Ключевые слова: хадисы, Сунна, Коран, исламская система образования, хадисоведение, Мавераннахр, Имам аль-Бухари, Имам ат-Тирмизи, «Аль-Адаб аль-Муфрад», духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, медресе, джадидизм, воспитание, современное образование.

THE EDUCATIONAL AND FORMATIVE POTENTIAL OF HADITH HERITAGE: A HISTORICAL-PEDAGOGICAL ANALYSIS AND CONTEMPORARY APPROACHES

Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Qori Niyoziy National Institute of Educational Pedagogy, Independent Researcher.

Abstract.

This article provides a historical and pedagogical analysis of the educational and formative potential of hadith literature. It examines the role of the Qur'an and Sunnah in the development of Islamic education, the early educational practices established during the lifetime of the Prophet Muhammad (peace be upon him), the major stages in the development of hadith scholarship, and the emergence of hadith schools in Mawarannahr. Particular attention is given to the scholarly legacy of Imam al-Bukhari, Imam al-Tirmidhi, and other prominent scholars, with emphasis on its contribution to the spiritual and moral formation of younger generations. The study also traces the development of traditional schools and madrasas, the educational reforms associated with the Jadid movement, the restrictions imposed on religious education during the Soviet period, and the revival of hadith scholarship in independent Uzbekistan. The article further highlights the pedagogical relevance of the ethical teachings contained in hadith literature for contemporary education, particularly their integration with national and universal human values and their potential incorporation into the curriculum of the "Education" subject.

Keywords: hadith literature, Sunnah, Qur'an, Islamic education, hadith scholarship, Mawarannahr, Imam al-Bukhari, Imam al-Tirmidhi, *Al-Adab al-Mufrad*, spiritual and moral education, national values, madrasa, Jadid movement, education, contemporary education.

Kirish. Islom ta'lim tizimining shakllanishi Qur'oni karimning nozil bo'lishi bilan bevosita bog'liq. Milodiy 610-yilda Hiro g'orida Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga nozil qilingan ilk vahiy – "Iqro'" amri ilm-ma'rifatni ulug'lovchi yangi bosqichni boshlab berdi. Qur'oni karimning dastlabki oyatlari ilm olish, tafakkur qilish va bilishga da'vat etishi islom ta'lim tizimining g'oyaviy asosini tashkil etdi. Shu bois Qur'on musulmon jamiyatida nafaqat diniy manba, balki ta'lim-tarbiya, axloqiy kamolot va ilmiy tafakkurning asosiy mezoniga aylandi [1].

Payg'ambar (s.a.v.) davrida ta'limning dastlabki shakllari masjidlar va uy-joylarda tashkil etildi. Madinadagi Masjid an-Nabaviy qoshidagi Ahl as-Suffa islom tarixidagi eng erta tashkil etilgan ta'lim maskanlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu yerda Qur'on o'qish, yodlash, tafsir, ibodat qoidalari va sunnat o'rgatilgan. Ta'lim jarayoni Qur'on va sunnat uyg'unligida olib borilib, jamiyatning ma'naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qilgan. Aynan shu davrda hadislarining tarbiyaviy ahamiyati ochiq namoyon bo'lib, bunda Payg'ambar (s.a.v.)ning so'zlari va amallari orqali sahobalar o'rtasida rostgo'ylik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va adolat kabi fazilatlar shakllantirildi.

Qur'ondan keyingi ikkinchi asosiy manba sunnat va hadis hisoblanadi. Sunnat – Payg'ambar (s.a.v.)ning so'zlari, amallari va taqirlari yig'indisi, hadis esa ushbu sunnatning rivoyat shaklida yetib kelgan ifodasidir. Qur'onda Allohga itoat bilan birga Rasulullohga ergashish ham buyurilgani (Oli Imron, 31; Niso, 59) hadislarini Qur'onni sharhlovchi va amaliy hayotda namoyon etuvchi manba sifatida shakllantirdi [2, 15–72-b.].

Payg'ambar (s.a.v.) hayotlik chog'larida hadislar asosan yod olish va og'zaki rivoyat orqali saqlangan. Ayrim sahobalarga yozib borishga ruxsat berilgan. Abdulloh ibn Amr ibn Os tomonidan tuzilgan "As-Sahifatus-sodiq" eng erta yozma hadis to'plamlaridan biri sanaladi. Abu Hurayra, Ali ibn Abu Tolib, Jobir ibn Abdulloh, Anas ibn Molik va boshqa sahobalar ham hadislarini saqlash va yetkazishda muhim rol o'ynagan.

Hijriy I asr oxiri – II asr boshlarida hadislarini yozma jamlash zarurati kuchaydi. Rivoyatchilar sonining ortishi, sahobalarning vafoti va soxta rivoyatlarning paydo bo'lishi ilmiy mezonlar asosida to'plashni taqozo etdi. Umaviy xalifasi Umar ibn Abdulaziz (hijriy 99–101 / milodiy 717–720) Madina hokimi Abu Bakr ibn Muhammad ibn Amr ibn Hazmga va olim Muhammad ibn Shihob az-Zuhriyga hadislarini yozib to'plash vazifasini topshirdi. Bu davlat miqyosida hadislarini jamlashga qaratilgan ilk rasmiy tashabbus sifatida baholanadi [3, 9–38-b.].

Ushbu jarayon hadislarini nafaqat saqlash, balki ularning tarbiyaviy salohiyatini keng jamiyatga yetkazish imkoniyatini yaratdi.

VIII–IX asrlarda hadis ilmi mustaqil fan sifatida shakllandi. Ishonchlilikni aniqlash uchun isnod, ilm ar-rijol, jarh va ta'dil yo'nalishlari vujudga keldi. Hadislar sahih, hasan, zaif, mavzu' kabi toifalarga ajratildi. Shu asosda turli uslubdagi to'plamlar yaratildi. IX asrda Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom at-Termiziy, Imom an-Nasoiy va Imom Ibn Moja tomonidan tuzilgan asarlar keyinchalik "Kutub as-sitta" nomi bilan mashhur bo'ldi. Bu asarlar jamiyatda axloqiy me'yorlarni mustahkamlashda asosiy manba vazifasini o'tadi.

Movarounnahr tarixan islom sivilizatsiyasining yirik ilm-ma'rifat markazlaridan biri hisoblanadi. Islom dini ushbu hududga VII asrning ikkinchi yarmi – VIII asr boshlarida kirib keldi. Islom bilan birga Qur'oni karim va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) sunnatiga asoslangan hadis ilmi ham keng yoyila boshladi. Dastlab hadislar sahobalar va tobeinlar tomonidan og'zaki rivoyat qilingan bo'lsa, VIII asrdan boshlab ularni yozib olish, tekshirish va tasniflash ishlari izchil yo'lga qo'yildi [4, 25–41-b.]. Bu davrda hadislar mahalliy aholining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim vosita bo'lib,

zardushtiylik va boshqa e'tiqodlardan islomga o'tish jarayonida axloqiy qadriyatlarni singdirishga xizmat qildi.

Movarounnahrda hadis ilmining rivojlanishiga ushbu hududda qadimdan mavjud bo'lgan ilmiy an'analar muhim omil bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Termiz, Nasaf, Shosh va Kesh shaharlari musulmon Sharqining nufuzli ilm markazlariga aylandi. Bu shaharlardagi masjid, madrasa va kutubxonalar hadis ilmini o'qitish hamda tadqiq etishning asosiy markazlariga aylandi. Bu yerda hadislarini yod olish, isnodlarni tekshirish, roviylarning ishonchliligini aniqlash va hadis matnlarini tahlil qilish bo'yicha mustahkam ilmiy maktab shakllandi.

VIII–X asrlarda Movarounnahrda Qur'oni karim ilmlari, fiqh, tafsir, kalom bilan bir qatorda hadis ilmi ham yuksak taraqqiy etdi. Aynan shu ilmiy muhitda yuzlab muhaddislar, faqihlar va mufasssirlar faoliyat yuritib, Movarounnahr hadis maktabining shakllanishiga asos soldilar. IX asrga kelib Movarounnahr hadis ilmining dunyoga mashhur markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda hadislar nafaqat ilmiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlodni adolat, sabr, mehnatsevarlik va ilmga intilish ruhida tarbiyalashda asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Bu davrda yetishib chiqqan buyuk muhaddis Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870) hadis ilmini yangi bosqichga olib chiqdi. U Buxoroda tavallud topgan, yoshligidanoq hadis yodlash va o'rganishga qiziqqan. Hijoz, Iroq, Shom, Misr, Xuroson va boshqa hududlarga uzoq safarlar qilib, 600 mingdan ortiq hadis to'plagan. Uning "Al-Jome' as-sahih" asari qariyb 16 yil davomida yaratilgan bo'lib, 600 ming hadis orasidan eng ishonchli deb topilgan 7275 ta (takrorsizlari taxminan 4000 ta) hadisni o'z ichiga oladi. Mazkur asar musulmon olamida Qur'oni karimdan keyingi eng ishonchli manba sifatida e'tirof etilgan. Imom al-Buxoriy tufayli Movarounnahrda IX–XII asrlarda ko'plab hadisshunoslik maktablari shakllandi [5, 3–18-b.].

Uning "Al-Adab al-Mufrad" asari esa maxsus axloqiy tarbiya uchun mo'ljallangan bo'lib, odob-axloq, ota-onaga hurmat va qo'shnichilik huquqlari kabi masalalarni yoritadi.

Movarounnahr muhaddislik maktabining yana bir yirik namoyandasi Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824–892) hisoblanadi. U Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida tavallud topgan. Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud va boshqa yirik muhaddislardan tahsil olgan. Uning "Al-Jome'" ("Sunan at-Termiziy") asari hadislarini fiqhiy jihatdan sharhlashi, hadislarining darajasini (sahih, hasan, zaif) aniqlashi va turli fiqh maktablari qarashlarini qiyosiy tahlil qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu asar "Kutub as-sitta" tarkibiga kiritilgan [6, 69–82-b.].

Movarounnahr hadis maktabining yana bir mashhur vakili Imom Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Dorimiy (797–869) bo'lib, uning "Sunan ad-Dorimiy" asari ilk hadis to'plamlari qatorida muhim o'rin egallaydi [7, 35–48-b.].

IX–X asrlarda Buxoro, Samarqand, Termiz va Nasafda shakllangan muhaddislik maktablari nafaqat hadislarini jamlash, balki ularning isnod va matnini ilmiy tahlil qilish, roviylarni baholash (ilm ar-rijol), hadislarini tasniflash va sharhlash metodologiyasini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynadi. Mazkur ilmiy maktablar keyinchalik butun islom olamida hadis ilmining taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, ular jamiyatda axloqiy me'yorlarni mustahkamlash va yosh avlodni tarbiyalashda bevosita ishtirok etdi.

Movarounnahrda islom dini kirib kelishi bilan diniy-ma'rifiy hayot yangi bosqichga ko'tarildi. Qur'oni karim va hadis ilmlariga asoslangan ta'lim tizimi shakllandi. X–XIII asrlarga kelib Samarqand, Buxoro, Urganch, Marv, Balx va Nishopur kabi shaharlarda maktab va madrasalar Sharqning yirik ilm-ma'rifat markazlariga aylandi. Ta'limning asosiy maqsadi yosh avlodga diniy va dunyoviy bilimlarni egallatish, ularni yuksak axloq va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Bu davrda hadislar maktab va madrasa dasturlarining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarda odob-axloq, sabr, adolat va ilmga intilishni shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qildi.

O'rta asrlarda musulmon mamlakatlarida ta'lim uch bosqichda tashkil etilgan: boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va oliy ta'lim. Ta'lim muassasalari odatda besh turga bo'lingan: boshlang'ich maktab, qorixona, daloilxona, o'rta madrasa va oliy madrasa. Boshlang'ich ta'lim masjidlar qoshidagi maktablarda olib borilgan. Bolalar 4–6 yoshdan qabul qilinib, dastlab arab alifbosi, o'qish va yozish o'rgatilgan. Keyinchalik ular "Haftiyak", "Chor kitob", "Pandnoma" va "Sabot ul-ojizin" asarlarini o'rganganlar. Qorixonalarda Qur'oni karimni to'liq yod olish, daloilxonalarda "Daloil ul-xayrot" o'rganilgan. O'rta va oliy madrasalarda Qur'on, hadis, fiqh, tafsir bilan bir qatorda mantiq, matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix va adabiyot ham o'qitilgan.

Madrasalarda ta'lim odatda uch bosqichdan iborat bo'lgan: adno (boshlang'ich), avsat (o'rta) va a'lo (oliy). Ta'lim mazmuni ikki asosiy yo'nalishda olib borilgan: naqliy ilmlar (Qur'on, hadis, fiqh, tafsir, kalom) va aqliy ilmlar (mantiq, matematika, falakiyot, tibbiyot, geografiya va falsafa). Hadislar bu tizimda nafaqat diniy bilim, balki axloqiy tarbiyaning asosiy manbai sifatida o'qitilgan. Madrasalarda shakllangan ilmlar ichida, ayniqsa, fiqh, hadis, kalom, tafsir, falsafa, tasavvuf va tariqiy ta'limotlar keng quloch yo'ygani edi. Bu ishlarning keng rivojlanishiga, bir tomondan, ilk madrasalarning Movarounnahrda shakllanganligi, ikkinchi tomondan esa hadis ilmining imomi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, kalom ilmining imomi Abu Mansur al-Moturidiy, fiqh ilmining imomi Burhoniddin al-Marg'inoniy, tafsir ilmining imomi az-Zamaxshariy va tasavvuf tariqatlarining buyuk namoyandalari yurtimizdan chiqqanligi sabab bo'ldi. Ular yashagan davr "ilmlarning oltin davri" deb e'tirof etiladi. Shunday qilib, bilimlarning uyg'onish davri markazi Movarounnahr bo'lib qoldi [8, 325–326-b.].

"Madrasa" so'zi arabcha "darasa" (o'rganmoq) so'zidan olingan bo'lib, dars o'qitiladigan joyni anglatadi. Madrasalar dastlab VII–VIII asrlarda islom ulamlari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlaydigan markaz sifatida paydo bo'ldi. Keyinchalik masjidlar qoshida ilohiyot markazlari tashkil topib, madrasa deb atala boshladi. IX–XIII asrlarda Markaziy

Osiyoda madrasa uchun maxsus binolar qurila boshladi. Ularni shoh, xon, amir, sultonlar va yirik yer egalari o'z mablag'lari hisobidan qurdirganlar. Madrasaga diniy maktabni bitirgan bolalar qabul qilingan. O'quv dasturlari X–XII asrlarda ishlab chiqilgan. Madrasalarda arab va fors tillarida yozilgan diniy kitoblar o'rgatilgan. Dastlab "Avvali ilm", keyin arab grammatikasi, so'ngra "Hidoya", "Fiqh Kaydoniy", "Muxtasar al-Viqoya", "Sharh al-Viqoya" kabi asarlar asosida shariat aqidalari o'qitilgan. Shuningdek, tibbiyot, aruz, falsafa, geografiya va boshqa fanlar ham o'rgatilgan. Talabalar 15–20 yilgacha tahsil olganlar. Madrasalar o'z davrida fan va madaniyat markazi bo'lib, diniy ta'lim bilan birga dunyoviy bilimlar beradigan asosiy o'quv yurtlari vazifasini o'tagan. Ushbu tizimda hadislarining tarbiyaviy ahamiyati yuqori baholangan: ular orqali o'quvchilarda komil inson fazilatlarini shakllantirilgan.

XIV–XX asrlarda Movarounnahrda hadis ilmi va an'anaviy ta'lim tizimi turli siyosiy o'zgarishlarga qaramay, o'zining asosiy mohiyatini saqlab qoldi. Har bir davr oldingisining yutuqlarini davom ettirib, yangi sharoitlarga moslashgan holda rivojlandi.

Temuriylar davrida (XIV–XV asrlar) Amir Temur va uning vorislari hukmronligi ostida ilm-fan va ta'lim tizimi jiddiy qayta tiklandi. Samarqand, Buxoro va Hirotidagi madrasalar yirik ilm-ma'rifat markazlariga aylandi. Amir Temur olimlarni qo'llab-quvvatlagan, kutubxonalar va madrasalar qurdirgan. Bu davrda ta'lim naqliy va aqliy ilmlar uyg'unligida olib borildi. Mirzo Ulug'bek (1394–1449) tomonidan 1417–1420-yillarda Samarqandda qurilgan madrasa peshtoqiga "Ilm olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir" mazmunidagi hadis bitilgani hadis ilmining ta'limdagi o'rnini yaqqol ko'rsatadi. Ulug'bek madrasasi o'z davrining eng nufuzli oliy ta'lim maskanlaridan biri bo'lib, unda hadis, fiqh bilan birga aniq fanlar ham yuksak darajada o'qitilgan [9, 112–113-b.]. Temuriylar davrida hadislarining tarbiyaviy ahamiyati yanada kuchaydi: ular orqali yoshlar ilmga intilish, adolat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan.

Temuriylar saltanati tanazzulga yuz tutganidan so'ng, XVI asrdan boshlab Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari davrida an'anaviy maktab-madrasa tizimi yanada mustahkamlandi. Boshlang'ich maktablarda "Haftiyak", "Chor kitob", "Sabot ul-ojizin" kabi asarlar asosiy o'quv materiallari bo'lib qoldi. Madrasalarda Qur'on, hadis, fiqh, tafsir va arab tili asosiy fanlar sifatida o'qitildi. XIX asr oxiriga kelib an'anaviy ta'lim tizimi jamiyat hayotida hali ham muhim rol o'ynar edi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, XX asr boshlarida Buxoro amirligida 350 ga yaqin boshlang'ich maktab va 300 dan ortiq madrasa, Xiva xonligida 1500 ga yaqin maktab va 100 dan ortiq madrasa faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda ham hadislar o'quvchilarning axloqiy tarbiyasida markaziy o'rin tutgan.

Aynan shu tanqidiy muhit asosida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlari an'anaviy maktablarni isloh qilib, "usuli jadid" maktablarini tashkil etdilar. Ushbu maktablarda Qur'on va hadis ta'limi saqlab qolinganda matematika, geografiya, tarix, tabiiyot va ona tili kabi dunyoviy fanlar ham o'qitila boshlandi. Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat va boshqa jadidlar hadislarining axloqiy g'oyalarini zamonaviy ta'lim va milliy uyg'unlash mafkurasi bilan uyg'unlashtirishga harakat qildilar [10]. Jadidlar hadislarini milliy o'zlikni anglash, ma'rifat va taraqqiyot g'oyalarini targ'ib qilish vositasi sifatida qo'lladilar.

1920-yildan boshlab sho'ro hokimiyati yillarida diniy ta'lim tizimi keskin cheklab qo'yildi. Maktablar dunyoviyashtirildi, madrasalarning aksariyati yopildi. Qur'on va hadis ta'limi faqat ayrim rasmiy ruxsat etilgan muassasalarda – Buxorodagi Mir Arab madrasasi (1945/1946-yildan) va Toshkent Islom institutida (1971-yildan) cheklangan doirada davom etdi. Shu bilan birga, hadis va islomiy qadriyatlar xalq orasida oilaviy tarbiya va norasmiy "hujra"lar orqali saqlanib qoldi. Bu esa mustaqillikdan keyin diniy ta'limning qayta tiklanishi uchun muhim zamin yaratdi. Sho'ro davrida ham xalq orasida hadislarining tarbiyaviy ahamiyati yo'qolmaganligi ularning chuqur ildiz otganligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekiston tarixshunosligida xalq ta'limini o'rganish masalasida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Buxoro [11], Samarqand [12] madrasalari tarixi, ularda o'qitiladigan asosiy ilmlar haqidagi masalalar ilmiy nuqtai nazardan keng tadqiq etildi. Komiljon Kattayevning asarida qadimiy Samarqand shahridagi 55 ta madrasa-maktabning tarixi, ularning joylashuvi, ta'lim tizimi va ish yuritish prinsiplari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan [12, 30–90-b.]. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida ta'lim tizimini tadqiq etgan F. Bobojonova [11, 127-b.] va Abdusattor Jumanazar [13, 592-b.] asarlari ham ushbu nazariy hamda ilmiy ma'lumotlarni ochib berishda muhim manba vazifasini o'taydi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'unlash g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biridir [14]. Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, dastur va qonunlarni ishlab chiqishda O'rta Osiyoda asrlar davomida rivojlangan madrasa tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, ularni shakllantirishda an'anaviy ta'lim tizimi muhim rol o'ynagan. Dunyo ilm-fani va tamadduni rivojiga asosiy turtki bergan ziyo maskanlari – madrasalar islom dini va madaniyatining hosilasi bo'lib, ular ilk bor yurtimizda paydo bo'lgan.

Mustaqillikka erishilgan 1991-yildan boshlab O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi tubdan yangilandi. Sobiq mafkuraviy yondashuvlardan voz kechilib, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va buyuk ajdodlar merosini tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Yosh avlodni barkamol, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar va axloqan yetuk inson qilib tarbiyalash ta'lim siyosatining asosiy vazifasi etib belgilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu borada alohida ta'kidlaganidek: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi,

yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. ... Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" [15, 240–246-b.]. Ushbu yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimining shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi.

Mustaqillik davrida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadlari aniq belgilandi: milliy g'urur, vatanparvarlik va tarixiy xotirani shakllantirish; insonparvarlik, halollik, adolat, mas'uliyat, mehnatsevarlik va mehr-shafqat kabi fazilatlarini rivojlantirish; yoshlarning huquqiy, siyosiy, ma'naviy madaniyatini va mafkuraviy immunitetini oshirish. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun ta'lim mazmuniga maxsus tarbiyaviy fanlar kiritildi.

Dastlab "Odobnoma" fani o'quvchilarda odob, muomala madaniyati, kattalarga hurmat va kichiklarga mehr tuyg'ularini shakllantirdi. "Vatan tuyg'usi" yo'nalishi Vatanga muhabbat, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qildi. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" milliy ong, tarixiy xotira va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratildi. 2020-yildan boshlab esa ushbu fanlar birlashtirilib, yagona "Tarbiya" fani joriy etildi [16]. "Tarbiya" fani ma'naviy-axloqiy, huquqiy, ekologik, estetik va vatanparvarlik tarbiyasini yagona tizim asosida amalga oshirishga xizmat qilmoqda. U shaxsning dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faol va mas'uliyatli fuqaro sifatlarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda muhim pedagogik vazifani bajaradi. Ayniqsa, "Tarbiya" fani orqali yoshlarga hadislarining axloqiy o'g'itlari – ilm olish, ota-onaga hurmat, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va mehr-oqibat kabi g'oyalar yetkazilmoqda. Bu esa yosh avlodning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu jarayonning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (1997-yil va 2020-yil yangi tahriri), "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997-yil) hamda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" (2019-yil) bilan mustahkamlangan [17]. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" oiladan oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi va yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini bosqichma-bosqich shakllantirishni belgilaydi.

Aynan shu huquqiy va pedagogik asoslar doirasida "Yangi O'zbekiston ma'naviyat konsepsiyasi" shakllandi. Bu konsepsiya "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyiliga asoslanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" [18]. Ushbu konsepsiya ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevori sifatida belgilaydi va inson qadri, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy immunitetni mustahkamlash hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashishni o'z ichiga oladi.

Shu asosda hadislarining ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni yanada kuchaydi. Hadislar islom madaniyatining muhim manbalaridan biri bo'lib, insonning axloqiy kamoloti, odobi va ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi tarbiyaviy g'oyalarga boydir. Ularda ilmga intilish, halollik, rostgo'ylik, adolat, sabr, mehr-shafqat, ota-ona va ustozga hurmat, jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi qadriyatlar yoritilgan. Yoshlar uchun hadislar nafaqat diniy, balki hayotiy yo'l-yo'riq sifatida xizmat qiladi: ular ekstremizm va yot g'oyalardan himoya qilish, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda samarali vosita bo'lib qolmoqda. Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" va "Al-Adab al-Mufrad" asarlari, Imom Abu Iso at-Termiziyning "Sunan at-Termiziy" to'plami yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida hadis ilmini qayta tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son Farmon asosida Hadis ilmi maktabi tashkil etildi. Ushbu Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-noyabrdagi 896-son qarori qabul qilindi [19]. Qarorga ko'ra, Hadis ilmi maktabi O'zbekiston musulmonlari idorasi muassisligidagi oliy diniy ta'lim beruvchi nodavlat ta'lim muassasasi hisoblanadi. Unda "Hadisshunoslik" ta'lim yo'nalishi bo'yicha 5 yillik bakalavriat dasturi asosida kadrlar tayyorlanadi. Maktabning asosiy vazifalari: Qur'oni karim va hadislarining asl mohiyatini chuqur o'rgangan mutaxassislarini tayyorlash hamda hadislardagi ezgu umuminsoniy g'oyalarni yosh avlodga yetkazishdan iborat.

Shuningdek, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Imom Termiziy nomidagi o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyat yuritmoqda. Bu muassasalar buyuk muhaddislar merosini o'rganish, tarjima qilish va yosh avlodga yetkazish bilan shug'ullanadi. Maktab ta'limida hadislarining g'oyalari "Tarbiya" fani, tarix, adabiyot va ma'naviyat fanlari orqali faol qo'llanilmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hadislar islom ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishida nafaqat diniy, balki muhim ta'limiy va tarbiyaviy manba sifatida namoyon bo'lgan. Qur'oni karim va sunnat asosida shakllangan dastlabki ta'lim an'analari boshlab, Movarounnahrda hadis maktablari, maktab va madrasalar faoliyatigacha bo'lgan tarixiy jarayonda hadislar yosh avlodni ilmga intilish, odob-axloq, halollik, adolat, sabr, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashning muhim vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Movarounnahr hududida Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abdulloh ad-Dorimiy kabi buyuk muhaddislarining faoliyati hadis ilmining rivojiga katta hissa qo'shib, ushbu hududni islom sivilizatsiyasining muhim ilmiy markazlaridan biriga aylantirdi. Ayniqsa, Imom al-Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad" asari axloq, odob, insonlararo munosabat va tarbiyaga oid mazmuni bilan alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, an'anaviy maktab va madrasalarda hadislar diniy bilim berish bilan bir qatorda, shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish vositasi sifatida ham qo'llanilgan. Jadidchilik davrida esa ushbu meros zamonaviy fanlar bilan uyg'unlashtirilib, ta'limni yangilash va yosh avlodni ma'rifat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Mustaqillik yillarida milliy-ma'naviy merosni qayta tiklash jarayonida hadis ilmi va buyuk muhaddislar merosiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Hadis ilmi maktabining tashkil etilishi, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatining rivojlanishi hamda hadislarining "Tarbiya" fani va boshqa ta'lim yo'nalishlari mazmunida qo'llanilishi ushbu merosning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini belgilaydi.

Umuman olganda, hadislarining tarbiyaviy mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish yosh avlodda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hadislarni yosh xususiyatlariga mos tanlash, ularni hayotiy vaziyatlar va amaliy faoliyat bilan bog'lash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida talqin qilish orqali ularning tarbiyaviy salohiyatidan yanada samarali foydalanish mumkin. Shu jihatdan hadis merosi tarixiy-madaniy qadriyat bo'lish bilan birga, zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyituvchi muhim pedagogik resurs sifatida ham ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda hadis merosining ta'lim-tarbiyaviy salohiyatini aniqlash maqsadida tarixiy-pedagogik, qiyosiy-tahliliy, manbashunoslik, kontent-tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-pedagogik metod orqali islom ta'lim tizimining shakllanishi, Movarounnahrda hadis ilmining rivojlanishi hamda maktab va madrasalardagi ta'lim-tarbiya jarayonida hadislarining o'rni tahlil qilindi. Qiyosiy-tahliliy metod asosida an'anaviy ta'lim tajribasi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'zaro taqqoslandi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot natijalari hadislar islom ta'lim tizimining rivojlanishida diniy manba bilan bir qatorda, muhim ta'limiy-tarbiyaviy vosita bo'lganini ko'rsatdi. Qur'on va sunnat asosida shakllangan dastlabki ta'lim an'alaridan boshlab, Movarounnahrda maktab va madrasalargacha hadislar ilmga intilish, halollik, adolat, sabr, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat va mehr-oqibat kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Movarounnahrda Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy va Abdulloh ad-Dorimiy kabi muhaddislar faoliyati hadis ilmining rivojiga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, Imom al-Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad" asari odob-axloq va insonlararo munosabatlarni yoritishi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Tarixiy tahlil hadislarining an'anaviy maktab va madrasalarda diniy bilim bilan birga, ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida qo'llanganini ko'rsatdi. Jadidchilik davrida esa hadislarining axloqiy g'oyalari zamonaviy fanlar va ma'rifatparvarlik qarashlari bilan uyg'unlashtirildi. Mustaqillik davrida hadis ilmining qayta tiklanishi va uning ta'lim mazmunida qo'llanilishi ushbu merosning zamonaviy pedagogik ahamiyatini yanada oshirdi.

Muhokama natijasida hadislarining tarbiyaviy salohiyatidan samarali foydalanish ularni yosh xususiyatlariga mos tanlash, ishonchli manbalarga tayanish va hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga bog'liqligi aniqlandi. Shu jihatdan hadislarining axloqiy mazmunini "Tarbiya" fani bilan uyg'unlashtirish samarali pedagogik yo'nalish hisoblanadi.

Tavsiyalar

Hadis merosining ta'limiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun:

1. "Tarbiya" fani mazmunida hadislarining axloqiy g'oyalaridan yosh xususiyatlariga mos foydalanish;
2. hadislarini tanlashda ularning ishonchliliigi va tarbiyaviy mazmunini hisobga olish;
3. hadislarini hayotiy vaziyatlar, munozara va amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash;
4. muhaddislar merosini tarix, adabiyot va ma'naviyat fanlari bilan integratsiya qilish;
5. pedagoglar uchun hadis merosining tarbiyaviy imkoniyatlariga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Tadqiqot hadis merosi tarixiy jihatdan islom ta'limining muhim manbasi, pedagogik jihatdan esa ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samarali vositasi bo'lganini ko'rsatdi. Movarounnahr muhaddislari merosi, xususan, Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy asarlari yosh avlodda ilmga intilish, halollik, adolat, mehr-oqibat va mas'uliyat kabi fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi ta'lim jarayonida hadislarining tarbiyaviy mazmunidan foydalanish ularni yoshga mos, ishonchli manbalar asosida va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin qilishni talab etadi. Shu sababli hadis merosi zamonaviy "Tarbiya" fani mazmunini boyituvchi muhim pedagogik resurs sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni karim. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021.
2. Azami M. M. Studies in Early Hadith Literature. – Indianapolis: American Trust Publications, 1978. – P. 15–72.
3. Brown J. A. C. Hadith: Muhammad's Legacy in the Medieval and Modern World. 2nd ed. – Oxford: Oneworld Publications, 2017. – P. 9–38.
4. Muminov A. K. Movarounnahr musulmon an'analari: hanafiylikning shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2020. – B. 25–41.
5. Al-Buxoriy M. I. Al-Jome' as-sahih / tahqiq: M. Z. ibn N. an-Nosir. – Bayrut: Dar Tavq an-Najot, 2001. – 1-jild. – B. 3–18.

6. At-Termiziy A. I. Al-Jome' al-kabir (Sunan at-Termiziy) / tahqiq: B. A. Ma'ruf. – Bayrut: Dar al-G'arb al-Islomiy, 1996. – 1-jild. – B. 69–82.
7. Ad-Dorimiy A. I. Sunan ad-Dorimiy / tahqiq: H. S. A. ad-Daroniy. – Ar-Riyod: Dar al-Mug'ni, 2000. – 1-jild. – B. 35–48.
8. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 325–326.
9. Ahmedov B. A. Ulug'bek. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989. – B. 112–113.
10. Qosimov B. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
11. Bobojonova F. Buxoro amirligida ta'lim tizimi. – Toshkent: Adib, 2014. – 127 b.
12. Kattayev K. Samarqand madrasalari va ilm-fan rivoji. – Samarqand, 2003. – B. 30–90.
13. Jumanazar A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 592 b.
14. Karimov I. A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Xalq so'zi. – 1995. – 24-fevral.
15. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 240–246.
16. Mirziyoyev Sh. M. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi // Xalq so'zi. – 2017. – 16-iyun. – № 119.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
18. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 'Tarbiya' fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.